

ABDULLA SHER TARJIMALARIDAGI O'ZIGA XOSLIK

Xamroyeva Dilnoza Jumanazarovna

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

d.j.xamroyeva@buxdu.uz

Annotatsiya: Abdulla Sher serqirra ijodkordir. U o'zbek adabiyotida shoir, olim, publitsist, tarjimon sifatida tanildi. Mutarjim sifatida Bayron, Hayne, Pushkin, Charents va boshqa ko'plab ijodkorlar asarlarini asliyatdan o'zbekchaga tarjima qildi. Abdulla Sherning mohir shoir sifatidagi iste'dodi tarjima jarayonida ko'makka kelgan. Maqolada uning tarjimonlik faoliyati, o'ziga xos tarjimalari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: tarjima, asliyat, Bayron, Pushkin, Haynrix Hayne, rus, ingliz, nemis tillari, mahorat.

Abdulla Sher – juda serqirra ijodkor. Uning tarjimachilik sohasidagi ishlari alohida tahsinga sazovor. U Bayronning “Don Juan” she'riy romanini ingliz tilidan, Haynrix Haynening “Qo'shiqlar kitobi” hamda “Germaniya. Qish ertagi” dostonini nemis tilidan, bundan tashqari, A.Pushkin, A.Axmatova, N.Nekrasov, A.Tvardovskiy, I.Kulmova, R.Hamzatov, R.Bryons, A.Blok, P.Antokolskiy, M.Lermontov, Y.Charents she'rlarini rus tilidan katta mahorat bilan o'zbek tiliga tarjima qildi. Shu o'rinda, shoirning o'z ijodiy namunalari rus, turk, ozarbayjon, qozoq, qirg'iz, qrim-tatar, qalmiq, bulg'or tillariga o'girilganini ta'kidlash lozim.

Jorj Bayronning “Don Juan” dostonidan ayrim parchalar “Jahon adabiyoti” jurnali va boshqa nashrlarda Abdulla Sher tarjimasida e'lon qilingan. Lekin to'liq tarjima hali qoralama variantda bo'lib, tarjimon dostonni haligacha nashr ettirmagan. Bayron ijodi o'zbek kitobxonlariga Maqsud Shayxzoda, Rauf Parfi, Muhammad Ali, J.Jabborov, Abdulla Sher, Sulaymon Rahmon tarjimalari orqali tanish. Aynan, “Don Juan”ni ham Abdulla Sher va Sulaymon Rahmon tarjimalari orqali o'qish mumkin. Ikki tarjimon tarjimalarini solishtirganda deyarli farq sezilmaydi. Tarjimadagi bo'g'inlar soni va qofiyalanish tizimi ham deyarli bir xil. Ikki tarjima ham sakkiz qatorli, a-b-a-b; a-b-d-

d tarzida qofiyalangan bo'lib, o'n bir bo'g'indan iborat. Ammo Abdulla Sher tarjimasida ixchamlikni anglab, voqealarni kengroq tasavvur qila olamiz. Tarjimon asliyatdagi manzarani o'z ona tilida gavdalantiradi. U tarjimada biror narsani izohlamaydi. Tarjimon fikricha, "Izohlash – she'riyatni barbod qiladi". Tarjimada ham Abdulla Sher mahoratini ko'ra olamiz. To'q qofiyalar, misralardagi mazmun va so'z o'yinlari tarjimon mahoratidan darak beradi.

“Sizga men ellik bor aytdim, birodar!”

Desa raqibingiz, bahs katta, demak.

Shoir “Yozdim, – desa, – ellik she'r” agar,

O'qib bermasa deb qo'rqasiz beshak.

Gar o'g'ri ellikta – g'aznaga xatar,

Ellikda ishqingiz gul emas, pechak;

Har kimga har qayda xush yoqar behad

Ellik chevron degan so'zgina faqat¹.

To'g'ridan to'g'ri tarjima asarning asliyatga yaqin chiqishini ko'proq ta'minlaydi. Shoirning bilvosita tarjimalaridan tashqari bevosita amalga oshirilgan tarjimalari ham bor. “Germaniya. Qish ertagi” dostoni xuddi shunday tarjima hisoblanadi. Abdulla Sher Haynening bu dostonni olmon tilidan tarjima qildi. Asar 1984-yilda o'zbek tilida to'liq holida chop etildi. Doston so'zboshi, “Parij bilan xayrlashuv” sarlavhali 11 bandli kirish qismi bilan boshlanadi, XXVII bobdan iborat asar 9 bo'g'inli vazn ko'magida o'zbek tiliga o'girilgan.

Olmon shoiri, publitsist, tanqidchi va havj ustasi bo'lgan Haynrrix Haynening aksar asarlari xalq dardini kuylaydi. Jamiyatni bo'g'ib qo'ygan tuzumni havj qiladi. “Germaniya. Qish ertagi” asarida ham jamiyat muammolari haqida fikr boradi. Hayne insonlarni ma'rifatga chaqiradi. Riyokorlik, mansabparastlik va yolg'on bor joyda rivojlanish bo'lmasligini uqtiradi. Ba'zi o'rinlarda xulosalarini kinoya orqali aytadi.

¹ Абдулла Шер. Қадимги куй. – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1987. – Б.150.

Qurilayotgan ibodatxona oxirida otxonaga aylanishi mumkinligini ta'kidlaydi.
Ruhoniylarning eng yaxshi joyi esa qafas deydi:

Men bir fikr o'ylab ham qo'ydim;

Ular uchun Sank Lamberti

Minorida uch temir qafas

Eng bop joy deb aqlim tan berdi².

Tarjima – muhim jarayon. U sinxron, ilmiy-texnikaviy, siyosiy-pubtitsistik, axborot-analitik, she'riy tarjima kabi turlarni qamrab oladi. Ayniqsa, she'riy tarjima o'z tarjimonidan katta mahoratni talab qiladi.

Nafaqat “Germaniya. Qish ertagi” dostoni, balki Haynening “Qo'shiqlar kitobi” asari tarjimasida ham Abdulla Sher mahoratini kuzatamiz. Aynan bu kitobdagi “Ishqiy qo'shiqlar” turkumi diqqatga sazovor. Abdulla Sher biror voqeani kitobxon ko'z oldiga keltirish uchun so'zning o'z tilidagi muqobilini tanlaydi. Masalan, “yashnamoq, rivojlanmoq, go'zallashmoq” so'zlari o'rniga “qulf urmoq” frazeologik birligini qo'llaydi.

Mening yorim biram nozik, biram muloyim,

Xush surati ko'z o'ngimdan ketmaydi doim.

Yonoqlari qizil gul-u, ko'zi binafsha,

Yildan-yilga lov-lov yonar, **qulf urar** yashnab³.

Bundan tashqari, Sharq, G'arb so'zlari o'rniga “kunchiqar”, “kunbotar” so'zlarini keltiradi. Abdulla Sher tarjimada jumlaning shunchaki so'zma-so'z tarjima qilmaydi. Voqelikni his qilgan holda o'sha hissiyotni o'quvchiga yetkazadi.

Tarjimon ma'shuqaga nisbatan ham ko'p takrorlanuvchi go'zal, ko'rkli, jonon so'zlaridan qochgan holda “dilbar”, “barno”, “oyjamol”, “guljamol”, “mahbuba” kabi so'zlarni qo'llaydi. Aslida ushbu so'zlar nemis lug'atida bo'lmasligi mumkin. Ammo tarjimon uni sharqona qilib kitobxonga yetkazadi. Quyidagi parchada ham tarjimon telba, devona so'zlari o'rniga dalli so'zini ma'qul ko'radi.

² Хенрих Хейне. Германия. Қиш эртаги. – Т. Ёш гвардия, 1984. – Б.20.

³ www.kh-davron.uz. – Hayxrix Hayne. Ishqiy qo'shiqlar. Abdulla Sher tarjimasi. – 2018.

Ammo shamol uvillar shu dam,
Boshin silkib menga der eman:
“Shu payt qayga, esi yo‘q otliq,
Bormoqchisan **dalli** o‘y bilan?!⁴”

Umuman olganda, ushbu holatni Abdulla Sherning barcha tarjimalarida kuzatishimiz mumkin. Ijodkorda so‘zga nazokat bilan yondashish, bir ishga chin childan kirishish xususiyatlari mavjud. Tarjima qilingan dostonlar, she‘rlar, sonetlar, barcha-barchasida, asliyatdagi ma‘noni saqlab qolishga harakat qilingan. Rusning buyuk shoiri A.S.Pushkin ijodidan qilingan tarjimalar ham e‘tiborga molik. Asar “Qur‘ondan iqtibos” deb nomlangan bo‘lib, P.A.Osipovaga bag‘ishlanadi. Pushkin Sharq xalqlari madaniyatiga juda katta qiziqish va hurmat bilan qaragan. Hatto masjidlarda bo‘lib, Qur‘on tilovatlarini tinglagan. Musulmonlar hayotini katta qiziqish bilan kuzatgan. Shundan so‘ng, uning “Kavkaz asiri”, “Bog‘chasaroy fontani”, “Qur‘ondan iqtibos” asarlari dunyoga kelgan. Ayniqsa, “Qur‘ondan iqtibos” asari rus adabiyotida katta o‘rinni egallaydi. Pushkinning islom olami va payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v)ga bo‘lgan e‘tibori ko‘pchilikni lol qoldirgan. Ushbu asar IX qismdan iborat bo‘lib, har bir qismda alohida mavzular yoritib boriladi. Dastlabki bobda Qur‘onning nozil bo‘lishi, Alloh uni o‘z qullariga yuborgani, Haqqa ishongan inson kam bo‘lmasligi haqidagi fikrlar aks etgan:

Yetimlarni suyib, Qur‘onni
Qullaringa ayladim targ‘ib⁵.

Ikkinchi bob esa islom ayollariga bag‘ishlanadi. Mo‘minlarning onalari eng baland hurmatga sazovor ekanliklari ifodalanadi. “Ey, Rasulning pok ayollari, Ustuvorsiz jami ayoldan”⁶ satrlari so‘zimizning yaqqol dalilidir. Uchinchi bobda qiyomat kuniga ishora qilinadi. Bir kun Isrofil sur chalganda barcha qayta tirilishi, hamma Tangrini tanib, osiylar esa lovullagan o‘tga yuztuban yiqilishini ta’kidlaydi.

⁴ www.kh-davron.uz. – Hayxrix Hayne. Ishqiy qo‘shiqlar. Abdulla Sher tarjimasi, 2018.

⁵ Абдулла Шер. Танланган асарлар. – Т.: “Шарк” НМАК, 2021. – Б.628.

⁶ Yuqoridagi manba. – B.629.

Keyingi bobda Namrud va Kan'on o'rtasidagi munozaralarga to'xtalib o'tiladi. Inson o'zini yaratgan tangrisiga shakkoklik qilishi quyuq bo'yoqlarda ko'rsatiladi. Beshinchi bobda Alloh barcha narsaga qodir ekanligi, barcha narsa undan kelib, unga ketishiga ishora qilinadi.

U shafiqdir: u Muhammadga
Ochdi porloq Qur'onni Arshdan;
Topinaylik nuri abadga,
Ko'zimizdan arisin tuman⁷.

Keyingi boblarda sahobalar, "Oli Imron" surasidan ba'zi oyatlar keltiriladi. Yaratganning o'z bandalariga marhamatlari haqida so'z boradi. Tarjima juda chiroyli va mukammal qilingan. Ushbu tarjima ham tarjimonni, ham ijodkorni bir pog'ona yuksakka ko'taradi. Asar besh, to'qqiz, o'n bir, o'n besh bo'g'inli vaznda tarjima qilingan. Ushbu asar sobiq sho'ro davrida tarjima qilingan bo'lib, tarjimon uni vaqtli manbuotda nashr qildirgan. Islom dini aks etgan asar bo'lsa-da, Pushkin ijodiga mansub bo'lgani uchun hukmron doira nashrga e'tiroz bildirgan olmagan. Abdulla Sherni tarjimon sifatida tanir ekanmiz quyidagi xulosalarga keldik:

– barcha tarjimalarini nazarda tutganda, Abdulla Sher ingliz, nemis va rus tillaridan to'g'ridan to'g'ri tarjima qilish yo'lidan bordi va bu asarlar mazmunini to'liqroq anglashga yordam bergan holda, ijodkor mahoratini yuksakka ko'tardi.

– tarjimonning tarjimalari satrni shunchaki so'zma-so'z tarjima qilishdan iborat emas, balki asliyatdagi ifodani berishga qaratilgan;

– tarjimalarida kitobxonga yanada yordam berish uchun so'zning ona tilidagi turli muqobillarini qo'lladi;

– tarjimalarda izohlashdan qochdi va mukammal tarjima orqali muhokamani kitobxonning o'ziga qoldirdi.

Abdulla Sherning o'z fikri bilan aytganda: "She'r yozish tarjima qilishdan osonroq. Nasr tarjimasida tarjimon muallifning quli, she'riy tarjimada tarjimon

⁷ Yuqoridagi manba. – B.631.

muallifning raqibidir”⁸.

Abdulla Sher o‘z tarjimalariga muallifga raqib holda yondashadi. Muallif chizmoqchi bo‘lgan manzaradan ham go‘zalroq asar yaratishga harakat qiladi. Uning tarjimalari o‘zbek tarjimachilik maktabida alohida o‘rin va e’tiborga sazovordir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдулла Шер. Танланган асарлар. – Т.: “Шарқ” НМАК, 2021. – Б.628.
2. Хенрих Хейне. Германия. Қиш эртаги. – Т. Ёш гвардия, 1984. – Б.20.
3. www.kh-davron.uz. – Наухрих Хауе. Ишқий қо‘шиқлар. Абдулла Шер таржимаси. – 2018.
4. <https://youtube.com/watch?v=hXuUrijRIhA&si=46iawu5StluMxNYQ>. Tundaliklar. Abdulla Sher mushohadalari. – Т.: Ма’naviyat va marifat telekanali, 2022.

⁸ <https://youtube.com/watch?v=hXuUrijRIhA&si=46iawu5StluMxNYQ>. Tundaliklar. Abdulla Sher mushohadalari. – Т.: Ма’naviyat va marifat telekanali, 2022.